

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.E.Toshmurodov

Yosh kurashchilarning harakat ko'nikmalarini shakllantirishda tayanch-harakat apparati harakatchanligini rivojlantirish metodikasi 107

J.M.Hamrakulov

"Tyutorlik faoliyati asoslari" fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash..... 114

D.S.Abduqodirov

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlari 117

R.A.Jo'rayeva, M.A.Hojiyeva

Bo'lajak filolog-mutaxassislarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish – malakali mutaxassislar tayyorlash omili 120

G.I.Otaboyeva, Z.G.Mamataliyeva

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda texnologik yondashuv 123

O.X.Rashidova

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish..... 126

Z.D.Rasulova

Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantishda ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish 131

Н.Э.Юлдашева

Эффективные формы и методы развития профессиональной компетентности учителей физического воспитания 136

Е.М.Любимова, А.И.Кудряшова, М.К.Ахмадалиева, К.Д.Патидинов

Обучение цифровым инструментам и ресурсам студентов - бакалавров педагогического образования 139

Sh.G'.Xasanov

Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modeli 145

M.I.Ne'matov

Bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari..... 152

I.X.Turdiboyev

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash bo'yicha ayrim mulohazalar 160

IQTISODIYOT**X.X.Бозаров**

Совершенствование научно-методических основ развития малого бизнеса в условиях инновационной экономики 164

FALSAFA**N.S.Badriddinova**

XVII – XVIII asrlarda Movarounnahrda falsafiy va tasavvufiy qarashlar 171

B.B.Dehqonov

Bahouddin Naqshbandning inson kamoloti haqidagi qarashlari..... 175

O.R.Sultonova, S.S.Sadullayev

Qishloq yoshlarini iqtisodiyot tafakkurini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning o'rni va ahamiyati 180

I.J.Jabborov

Shayx Najmiddin Kubro ruboilyarida ishq falsafasi 184

G.N.Navro'zova

Xoja Ahror Valiy o'zlikni anglash xususida: qiyosiy-falsafiy tahlil 187

M.E.Xujamov

Yangilanayotgan O'zbekistonda ilmiy-axloqiy qadriyatlarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni..... 191

F.A.Ibroximov

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda aholi huquqiy madaniyatining ahamiyati 197



УО'К: 378.18

**BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIMINI
MUAMMOLI VAZIYATLAR ASOSIDA TASHKIL ETISH**

**ОРГАНИЗАЦИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ
НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ПРОБЛЕМНЫХ СИТУАЦИЙ**

**ORGANIZING INDEPENDENT EDUCATION OF FUTURE PRIMARY CLASS TEACHERS
ON THE BASIS OF PROBLEM SITUATIONS**

Rashidova Oynisa Xusniddin qizi 

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika Instituti magistranti

Annotatsiya

Ma'lumki, Oly ta'lif muassasalarida talabalarning mustaqil ta'limiini to'g'ri tashkil etish, zamonaviy shakllarda topshiriglarni tashkil qilish va uni nazorat qilish hamda optimal shaklda baholash bugungi ta'lif jarayonidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli, ushbu maqolada mustaqil ta'lifni tashkil etishning zamonaviy shakllaridan biri yoritib berilgan. Shuningdek, bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirish maqsadida, ularning mustaqil ta'limiini muammoli ta'lif asosida tashkil etishning ma'zmun-mohiyati hamda bugungi kundagi afzalliklari haqida ma'lumot berilgan. Bundan tashqari, pedagogik faoliyatda uchraydigan muammoli vaziyatlarga misollar keltirilib, mustaqil ta'lif jarayonida uni qo'llash amaliy jihatdan ko'satib berilgan. Shu bilan birgalikda, muammoli ta'lifning asosiy maqsadi - muammoli vaziyatga optimal yechim tanlash orqali talabalarning yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirishidan iborat ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Аннотация

Известно, что правильная организация самостоятельного обучения студентов в высших учебных заведениях, построение заданий в современных формах и их контроль, оценивание в оптимальной форме являются одной из актуальных проблем современного образовательного процесса. Поэтому в данной статье будет освещена одна из современных форм организации самостоятельного образования. Также в целях развития готовности будущих учащихся младших классов к профессиональной деятельности предоставляется информация о содержании и преимуществах организации их самостоятельного обучения на основе проблемного обучения. Кроме того, были приведены примеры проблемных ситуаций, встречающихся в педагогической деятельности, и показано их применение в процессе самостоятельного обучения на практике. При этом подчеркивалось, что основной целью проблемного обучения является самостоятельное усвоение учащимися новых знаний путем выбора оптимального решения проблемной ситуации.

Abstract

It is known that the proper organization of independent education of students in higher education institutions, creation of tasks in modern forms and its control, and evaluation in an optimal form are one of the urgent problems in today's educational process. Therefore, in this article, one of the modern forms of organizing independent education will be highlighted. Also, in order to develop the readiness of future elementary school students for professional activities, information is provided about the content and advantages of organizing their independent education based on problem-based education. In addition, examples of problematic situations encountered in pedagogical activity were given, and its application in the process of independent education was shown in practical terms. At the same time, it was emphasized that the main goal of problem-based education is students' independent assimilation of new knowledge by choosing the optimal solution to a problem situation.

Kalit so'zlar: Mustaqil ta'lif, muammoli ta'lif, muammoli vaziyat, usullar, bilim, fikr, ijodiy, yechim, natija.

Ключевые слова: Самостоятельное обучение, проблемное образование, проблемная ситуация, методы, знания, идея, творчество, решение, результат.

Key words: Independent education, problem education, problem situation, methods, knowledge, idea, creative, solution, result.

KIRISH

Oly ta'lif muassasalarida mustaqil ta'lif talabalarning bilimlarini chiqurlashtirish, ijodiy faoliyatiga qiziqishini shakllantirish, tadqiqot yoki uslubiy faoliyat bilan shug'ullanishga zamin yaratish, o'quv faoliyatida mustaqillikni shakllantirish, krativlikni shakllantirish bilan birgalikda ongli

PEDAGOGIKA

tushunish va mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun xizmat qiluvchi jarayon hisoblanadi [1, 25]. Ko'rinib turibdiki, mustaqil ta'larning to'g'ri va zamonaviy shakllarda tashkil qilinishi nafaqat o'quv faoliyatida balki, mustaqil o'z ustida ishlash jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, bugungi kunda mustaqil ta'lism soatlari ulushi ko'paytirildi va ayni vaqtida talabalar o'quv jarayonining 60% ini tashkil qilmoqda. Bundan tashqari, mustaqil ta'limi zamonaviy shakllarda tashkil qilish bo'yicha ko'plab tadqiqot ishlari olib borildi va rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimidagi mustaqil ta'larning o'ziga xos xususiyatlari o'rganib chiqildi. Shunga qaramasdan, bugungi kunda talabalar mustaqil ta'limi ta'lum jarayonining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, tadqiqotda mustaqil ta'lum bilan bog'liq muammolarni sal bo'lsa ham yechish maqsadida, boshlang'ich ta'lum yo'nalishi talabalarining mustaqil ta'limi muammoli vaziyatlar asosida tashkil etishning zamonaviy shakllari va afzalliklari o'rganildi hamda batafsил yoritildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda tadqiqotchilar tomonidan muammoli ta'lum, muammoli ta'lum texnalogiyalari, muammoli vaziyat tushunchalariga turlicha ta'rif va tavsiflar berilgan. Ulardan, H.Y.Qodirova shunday ta'rif beradi: "Muammoli ta'lum - ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning subyektiv shaklidir. U muammoli vaqtning yangi jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida obyektiv ravishda vujudga keladigan vaziyat. Muammoli vaziyat bolaning ma'lum ruhiy holati bo'lib, bu holat ma'lum topshiriqni bajarish jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi" [2, 249]. Bundan ko'rinib turibdiki, muammoli ta'lum faqatgina muammoga yechim topish bilan emas, balki uni yechish orqali egallinmagan bilimlarni o'zlashtirish, pedagogik faoliyatdag'i ma'lum bir muammolarni oldindan o'rganish hamdir. Shuningdek, muammoli ta'lum texnalogiyalari talabalar faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan hisoblanadi. Uning bosh maqsadi – talabalarning o'rganayotgan mavzusiga doir muammolarini to'liq tushunib yetishga erishish va uni yechish hamda kelajakda pedagogik faoliyatda uchraydigan kasbiy muammolarni hal eta olishga o'rgatishdir.

A.N.Baxtiyorovnani fikriga ko'ra, "Muammoli ta'lum - o'quvchilarning erkin flkrlashlariga, o'zining fikrini erkin bayon qila olishlariga va fikrlarini yanada rivojlantirishlariga ta'sir etishdir" [3, 189]. Bundan ko'rinib turibdiki, muammoli ta'lum nafaqat talabalarning balki mакtab o'quvchilarining fikrini, dunyoqarashini o'stirishga, talabani erkin ijod qilishga undovchi jarayondir.

Boshlang'ich ta'lum yo'nalishi talabalarining mustaqil ishlarni muammoli vaziyatlar asosida tashkil etishning asosiy masalalaridan biri berilgan mustaqil ta'lum mavzusi bilan bog'liq muammoli vaziyat yaratishdan iboratdir. Mustaqil ishlardagi muammoli vaziyatlarni kelib chiqishiga ko'ra ikki turga ajratish maqsadga muvofiqdir:

- ✓ Berilgan mustaqil ta'lum mavzusiga aloqador bo'lgan va shu asosida yaratilgan muammoli vaziyatlar. Ushbu shakldagi topshiriqlar mavzuning mazmun-mohiyatini yaxshi tushunishga, undagi barcha muammolarni anglash va uni yecha olishga o'rgatadi.

- ✓ Mustaqil ta'lum mavzusiga aloqador bo'lmagan, ammo kelajakda o'tilayotgan fan yuzasidan hamda pedagogik faoliyatda uchrashi mumkin bo'lgan muammoli vaziyatlar. Bu turdag'i muammoli vaziyatlarni yechish talabalarga kelajakda pedagogik faoliyatdag'i muammolarga yechim topishga, pedagogik mahoratl'i o'qituvchi bo'lishiga, yangi bilimlarni egallashga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'lum yo'nalishida talabalar mustaqil ta'limga muammoli vaziyatlarni tashkil etish va boshqarishda professor o'qituvchi quyidagi holatlarga alohida e'tibor qaratishi zarur:

- Mustaqil ta'lum mavzusi bilan mazmun jihatdan uzviy bog'liqligi va izchilliligi;
- Muammoli vaziyat yetarlicha talabaning qiziqishini oshiradigan bo'lishi yoki uning qiziqishini hosil qiladigan bo'lishiga;
- Muammoni yechimida olinadigan natijalar – talabalar uchun muhim bo'lishiga ya'ni foydalni bo'lishiga;
- Muammo o'rinali bo'lishi, uning asoslari soxta bo'lmasiligi.
- Maqbul yechim belgilari hamda yechimning maqbulligini tekshirish usullari haqidagi shartlar qabul qilinishi lozim.
- Muammo muayyan darajada chegaralangan bo'lishi [4, 34].
- Talabalarning muammoni yecha olishga bilim saviyasining yetarli darajada mos kelishiga;
- Muammoli vaziyatlarning onsondan qiyinda qarab, ya'ni murakkablashib borishiga;

- Muammoli vaziyatdagi aniq ziddiyatni ochib bera olishga;
- Vaqt bo'yicha to'g'ri taqsimlanishiga;
- Mustaqil ta'limni moodle platformasi orqali yuklashi uchun qulay shakllarda tashkil etishga;
- Topshiriqni va uni bajarishni aniq shartlar bilan tashkil etishga.

Tepada sanalgan muhim xususiyatlarga asoslangan holda muammoli vaziyatlarni yaratish boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari mustaqil ta'limining samarali bo'lishiga, kelajakda pedagogik faoliyatda mahoratli o'qituvchi bo'lishiga yordam beradi.



Rasm. 1. Muammoli vaziyatni tashkil qilish bosqichlari

Talabalarning muammoli vaziyatni tushunishlari - muammoning kelib chiqish sabablarini qay darajada tushunishiga bog'liqligini idrok qila olishlari orqali hosil bo'ladi. Bunday tushuna olish qobiliyati esa talabalarga mustaqil ravishda muammoni ifodalay olishga imkoniyat beradi. Bundan tashqari, muammoni yechish taxminlarini shakllantirishda talaba o'zlashtirgan bilimlari asosida kuzatish, solishtirish, tahlil qilish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi aqliy faoliyatlarni bajaradi. Aqliy faoliyatdagi asosiy jarayon fikrlash jarayoni bo'lib, fikrlashning sifati uning mantiqiyligi, mustaqilligi, ijodiyligi, ilmiyligi, asosliligi, uzviyligi, maqsadliligi, tezligi, tahliliyligi, umumlashtirilganligi, kengligi, ishonarliligi, realligi, haqqoniyligi darajasi bilan belgilanadi. Shu bilan birga intellektual sifatlar xotira, tasavvur, anglash, va shu kabi psixologik jarayonlarning boshqa parametrlari bilan bog'liq[5, 10].

Professor o'qituvchi va talabalar bilim darajasining yuqori bo'lishi muammoli vaziyatlardan ko'zlangan maqsadlarga erishish imkoniyatini yaratadi. Shu tarzda, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida oldindan muammoni sezish, uni aniqlashtirish, yechimini faraz qilish va yechimning to'g'riliqini tekshirish qobiliyatlari rivojlanib boradi.

Muammoni hal etishni 3 ta bosqichga ajratish mumkin:

1. Isbotlash – bu muammoning ilgari to'g'ri deb tan olingan sabablar bilan bog'liqliklarini topish asosida amalga oshiriladi.
2. Tekshirish – buni tanlangan sababning oqibatida hal etilayotgan muammo hosil bo'lishi to'g'riliqini asoslash bilan amalga oshiriladi.
3. Tushuntirish – bu muammoning yechimi nima uchun to'g'riliqini tasdiqlovchi sabablarni aniqlash asosida amalga oshiriladi[3, 60].

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mustaqil ta'lim sifatida muammoli vaziyatning qanday shaklda bajarilishiga na'muna:

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi matematika darsida o'quvchilariga : "O'rtog'ingdan ko'chirma", " O'zing ishla, boshqalarning daftariga ko'z yogurtirma", " Ahmoq, ko'chiradigan odamingni ham topibsanda!. Bu o'rtog'ingni o'zi hali to'g'ri ishlolmaydi-yu!!! " singari yomon, zaharxanda gaplar bilan bir necha bor qattiq tanbehdan berdi.

PEDAGOGIKA

Undan keyingi sinf xonadagi o'qituvchi esa o'quvchilariga shunday dedi, juda ta'sirli qilib: "Bolalarim bir biringizdan berkitmanglar, bu yaxshi odat emas, hech kim sizlardan ko'chirayotganlari yo'q!".

Mustaqil ta'lif yuzasidan muammoli vaziyat savollari quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

1. Birinchi o'qituvchi o'quvchilarga pedagogik muloqotning qaysi turidan foydalanib murojat qildi? O'quvchilar uchun shunday tarzda talab qo'yish qanchalik to'g'ri deb hisoblaysiz?

2. Ikkinci o'qituvchi tomonidan pedagogik muloqot jarayoniga qo'yilgan talab o'quvchilar uchun foydalimi. Bu o'qituvchining xatti-harakatini qay tarzda baholash mumkin?

3. Bu vaziyatdagi o'zingizning pedagogik talabingizni yozing.

Ko'rsatmalar:

1. Topshiriq mohiyatini yaxshilab anglab, tushunib oling.

2. Berilgan manbalarga tayangan holda muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlang.

3. Aniqlangan omillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omil (yoki ikkita omil)ni ajrating.

4. Ana shu omillar asosida yechimni asoslashga urining[6, 55].

5. Yechimni daftarga aniq faktlar asosida yozing yoki audio shaklda tayyorlab hemis platformasiga joylang.

Topshiriqni yechish jarayoni:

1. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari topshiriq mohiyatini ikki-uch marta tanishish va pedagogik vaziyatni tushunish orqali yetarlicha anglab oladi.

2. Talaba berilgan manbalarni o'rganish orqali muammoning yechimini topishga xizmat qiluvchi bir nechta qarashlar yoki dalillarni aniqlaydi.

3. Talaba aniqlagan yechimlar, dalillar orasidan muammoga barchasidan ko'proq dahldor bo'lgan omilni ajratib oladi.

4. Talaba yechimni ajratib olingen omil asosida bayon etadi.

Talabaning yechimi

1. Birinchi o'qituvchi o'z o'quvchilariga pedagogik talabni yaxshi qo'yabman deb o'ylasada, ammo bunday yuqorida singari ifodalashi umuman mumkin emas. Nafaqat bu yerda noto'g'ri talab balki, axloqiy tarbiyaga zid bo'lgan so'zlar ham foydalanilayotganligini yaqqol korish mumkin. Bu o'qituvchi pedagogik muloqotning manipulyativ turidan foydalangan. Ya'ni ushbu muloqot turi orqali o'quvchilarga psixologik zarba berish bilan birgalikda, qo'pollik, qo'rslik singari salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qolaversa, o'qituvchining bunday yondashuvi o'quvchilar orasida bir biriga nisbatan ishonchhsizlaik, hurmat qilmaslik, yolg'onchilik singari sifatlarning yuzaga chiqishiga sababchi bo'ladi. Shu sababli, bunday muloqat turidan foydalanish o'quvchilar uchun zarracha tarbiyaviy ahamiyat kasb etmaydi.

2. Birinchi o'qituvchini kuzatgandan so'ng, ikkinchi o'qituvchining pedagogik talabi to'g'ri deb tushunilishi mumkin. Ammo bu o'qituvchining o'quvchilariga nisbatan qilgan ortiqcha xayrixohligi, samimiyligi o'quvchilarga aksincha ta'sir ko'rsatishi mumkin. Chunki, pedagogik talablarda ko'rsatilganidek, o'quvchi o'ziga nisbatan ortiqcha xayrixohlikni samimiylikni his etsa – o'qituvchining talabiga nisbatan teskari ish qilishi mumkin. Shu sababli, birinchi o'qituvchining muloqotiga nisbatan ikkinchi o'qituvchining muloqoti o'quv jarayoni uchun afzalroq.

3. Aziz o'quvchilar bir biringizdan ko'chirmang. Har biringiz o'z bilimingiz bilan misollarni ishlang. Ishlolmasangiz uylaringizda o'tgan mavzularimizni takrorlab yaxshilab o'qib o'rganishga harakat qiling yoki dars so'nggida mendan so'rang – albatta o'rgataman. Xalqimiz aytadilarki, "So'rash ayb emas, so'ramaslik aybdir".

Ushbu keltirilgan muammo muammoli vaziyatning ikki turiga ham mos keladi. Chunki, ushbu muammoni o'quv jarayonida ham, boshlang'ich ta'lif yo'nalishi talabalariga o'tiladigan pedagogik mahorot fanida ham kuzatish mumkin. Shu bois, bu kabi muammolarning fan yuzasidan mustaqil ta'lif sifatida keltirilishi talabalar uchun juda foydalidir.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda muammoli ta'lif o'quv mashg'ulotlarida ta'lifdan ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda o'zining ijobiy samarasini ko'rsatib kelmoqda. Shu sababli, ushbu maqolada, muammoli ta'lif turini mustaqil ta'lif jarayoniga tatbiq etish to'g'risida yetarlicha o'rganib chiqildi.

Ishoniladiki, aynan boshlang'ich ta'lism yo'nalishida bir fan doirasida tashkil qilingan mustaqil ta'lism soatlarining ikki soati yoki fan doirasidan kelib chiqib 4 soati muammoli vaziyat asosida tashkil qilinsa, mustaqil ta'limgandan ko'zlangan maqsad yetarlicha o'z samarasini beradi. Shu bilan birgalikda, muammoli vaziyat asosida tashkil qilingan mustaqil ta'lism orqali talabalar quyidagi ko'nikma va malakalarga ega bo'ladi:

- avvalo, talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini, dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qiladi;
- kerakli bilimlarni mustaqil o'rganishni hamda bu bilimlar orqali turli muammolarni yechishni o'rgatadi;
- talabalarda har qanday vaziyatda uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni yechishiga ko'nikma va yetarlicha bilim hosil qiladi;
- talabada an'anaviy ta'lism turiga nisbatan shaxsiy motivatsiya va bilishga, o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni hosil qiladi;
- talabalarning dialektik tafakkurining shakllanishi va rivojlanishiga yordam beradi, ular tomonidan o'rganilayotgan hodisalar va qonuniyatlardagi yangi aloqadorlikni yuzaga chiqarilishini ta'minlaydi[7, 318];
- ongli tushunish va mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, yaratuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantiradi[8, 265];
- kelajakda kasbiy faoliyatda muammoli vaziyatlarda mustaqil holatda, optimal yechim topishga o'rgatadi;
- muammoli vaziyatlarda uni hal etishga ta'sir etuvchi omillarning mavjudligini va ularning ta'sirini e'tiborga olishni o'rgatadi;
- qabul qilingan yechim va natija uchun mas'ullik hissini shakllantiradi;
- axborotlar bilan savodli ishlashni (ma'lum masalani tadqiq qilish uchun zarur faktlarni yig'ishni bilish, ularni tahlil qilish, muammolarni ycchishga qaratilgan gipotezalarni taklif qilish, qonuniyatlarni aniqlash, yangi muammolarni aniqlash va yechish)o'rgatadi[9, 3];
- talabalarni nostandard muammolarni ko'ra oluvchi, qo'ya oluvchi va yecha oluvchi shaxs sifatida tarbiyalaydi.

XULOSA

Ishoniladiki, Oliy ta'lism muassasida boshlang'ich ta'lism yo'nalishi talabalari mustaqil ishlarining 4 soatini(har bir fandan) tepada keltirilgan ko'rsatma va yo'nalishlar asosida muammoli vaziyatlar holatida tashkil qilish - talabalarning mustaqil fikr yuritishiga, o'z ustida mustaqil ishlashga, axborot manbalaridan ijodiy foydalanishga, muammolarni oldindan ko'rishga, ularga ijodiy yondashishga, bir nechta yechim topib, ulardan optimal yechimni tanlashga, o'z bilimlarini boyitishga, asosiysi ta'lism samaradorligini oshirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Begmatova D.M., Rashidova O.X. "Organizing the independent education of students in higher education institutions on the basis of a creative approach", « Journal of new century innovations" international interdisciplinary research journal, 2024, 25-31-b, DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10618051>
2. H.Y.Qodirov, " Muammoli ta'lism texnologiyasi o'qitishning eng samarali usuli sifatida", "Science and education" scientific journal, Volume 4, Issue 8, 2023, 248-252-b.
3. Adizova Nigora Baxtiyorovna, " Talabalarda muammoli ta'lism asosida darslarni tashkil etish va divergent tafakkurni rivojlantrish", " XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta'lism tarqqiyotidagi dolzarb muammolar" nomli jurnali, 1-tom, 10-som, 186-190-b.
4. G.A.Asilova, " Ilmiy tadqiqot faoliyati asoslari" Uslubiy qo'llanma, T-2020.
5. <http://manzura90.zn.uz/muammoli-talim/>
6. Abrayeva Mehrangiz, " Ta'lism jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish va tahlil qilish usullari", "Tafakkur manzili" jurnali, 2022, noyabr, 52-57-b.
7. M.B.Saydillayeva va M.M.Tog'ayeva, " Pedagogik jarayonlarda rivojlantruvchi ta'lism texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatlari tomoni(muammoli ta'lism texnologiyasi misoldida)", Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science, volume 3, issue 4, 2023, 314-319-b.
8. Rashidova O. "The use of innovative methods and tools in the organization of independent education in higher educational institutions as a pedagogical problem" Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social science, volume 3, issue 10, 2023, 261-270.
9. <https://ppmedu.jpnu.uz/index.php/ppmedu/article/view/4296/2910>